

AMIR TEMUR SALTANATIDAGI XAVFSIZLIK TIZIMINING O‘ZIGA XOSLIGI**RAXMONBERDIYEV Sh. S.,***Qurolli Kuchlar Akademiyasi Qurollanish va otish kafedrası o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanat xavfsizlik tizimining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini hamda sohibqironning ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xavfsizlik, beklik, urush, darvesh, karvon, ayg‘oqchi, hukmdor, meshkob, josus, qal’a, otiq askar.

Аннотация: В статье описывается комплексное представление о великой и уникальной фигуре Амира Темура, рассмотрены вопросы политической, социально-экономической сферах а также созданного им системы безопасности могущественного царства, и об огромном потенциале и опыте предпринимателя.

Ключевые слова: Безопасность, беки, война, дервиш, караван, шпион, правитель, мешкоб, шпион, крепость, кавалерия.

Abstract: The article covers the comprehensive understanding of the great and unique figure of Amir Temur, the political, socio-economic spheres of the security system of the powerful kingdom he established, as well as the enormous potential, skill, knowledge and experience of the entrepreneur.

Key words: Security, guard, war, dervish, caravan, ruler, spy, ruler, spy, castle, cavalry.

Tarixda shunday voqealar, shaxslar bo‘ladilarki, ular jamiyatning ham, unda yashayotgan kishilarning ham siyosiy taqdirini, ijtimoiy mavqeini o‘zgartirib yuboradilar. U tarixiy voqea – mustaqillik. U tarixiy shaxs – Amir Temur. O‘zbekiston mustaqilligini Amir Temurdan va ayni Sohibqiron hazratlarini istiqloldan alohida mushohada qilish tarixiy haqiqat mantig‘iga xilof bo‘ladi. Demoqchimizki, O‘zbekiston mustaqilligida vatandoshimiz Sohibqiron Amir Temur bin Muhammad Tarag‘ay Bahodirxon o‘g‘li hazratlarining ham majoziy hissalarini, ruhoniylari bor. O‘zbekiston mustaqilligi Vatan farzandi Amir Temurni ulug‘ladi.

Insoniyatning uzoq tarixi davomida urushayotgan qabilalar, bekliklar, keyin esa davlatlar siyosati, qoida tariqasida, ko‘pincha qurolli to‘qnashuvga aylanib ketgan harbiy qarama-qarshilikka asoslangan. Bu, o‘z navbatida, qo‘shin va qurollarga ega bo‘lishni taqozo yetdi. Uzoq tarixiy davr mobaynida nafaqat ijtimoiy tuzum, balki qurolli kurashning shakllari va usullari ham ko‘p marta o‘zgarganligi tabiiydir. Har doim qurollar urushlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib kelgan.

Amir Temur saltanatda xavfsizlik ishlariga alohida ahamiyat berib, o‘z davlati ichki, tashqi hududlarida ro‘y berayotgan voqealarga va yon qo‘shnilari harakatlaridan, ularning harbiy salohiyatidan, xalqining yashash sharoiti va boshqalardan doimo xabardor bo‘lib turgan. Shunga ko‘ra qo‘shni davlatlar haqidagi ma‘lumotlarni yengil otlig askarlardan tashkil topgan bo‘linmalar, savdo-sotiq bahonasida pinhona ish olib boruvchi savdo karvonlari, elchilar, darveshlar orqali bilib borgan. Mazkur ayg‘oqchilarni esa lavozimiga qarab oltin, kumush va misdan tayyorlangan payzalar (guvohnoma) bilan ta‘minlagan. Haqiqatda ham, Amir Temur tuzuklariga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, unda davr taqozosi bilan xavfsizlik bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida ma‘lumot olishimiz mumkin. Bu o‘rinda Amir Temurning o‘g‘illar, nabiralar, qavm-qarindoshlar, amirlar va vazirlarni jazolash (mavjud qonun-qoidalarni buzgan taqdirlarida) yo‘li bilan saltanatda intizom saqlash haqidagi tuzugi alohida diqqatga sazovor. «Amr qildimki, – deydi Amir Temur, – agar o‘g‘illarimdan qaysi birovi saltanat martabasiga da‘vogarlik etib, bosh ko‘tarar ekan, o‘z da‘vosidan kechmaguncha, asirlikda saqlasinlar. Agarda nabiralar yoki qavm-qarindoshlardan biri menga qarshi ko‘tarilsa, uni darveshlik holatiga solsinlar», ya‘ni mol-mulki tortib olinsin. Amir Temur shunga o‘xshash amirlari, vazirlari va bir qator toifadagi shaxslar tomonidan nojo‘ya harakat qilinsa, ularga turli ko‘rinishdagi jazo choralarni qo‘llashni buyurgan[1].

Amir Temur yana o‘z tuzuklarida taxtga o‘tirgandan so‘ng tinchlik saqlash maqsadida o‘zining do‘stu dushmanlari bilan alohida muomalada bo‘lgan. Amir Temur: «Har yerda, viloyatu shahar va o‘rduda kundalik voqealarni yozuvchilarni (xabarnavis) tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o‘z lashkari va yot lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlar haqidagi xabarlar, qo‘shni podshohlar, ularning gap-so‘zlari, ishlari va uzoq o‘lkalardan bo‘lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so‘zlarni to‘g‘rilik bilan menga yozib tursinlar» deb ta‘kidlab, boshqaruvda ma‘lumotning naqadar muhimligiga alohida e‘tibor qaratgan. Amir Temur doimo haqiqiy axborotlarni yetkazmagan kishilarni qattiq jazolagan. U turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo‘shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqea, korhol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik deb ta‘kidlagan holda, isboti uchun o‘z faoliyati davrida yuz bergan voqealardan ko‘plab misollar keltiradi. Amir Temur tuzuklaridagi bu ma‘lumotlarni o‘z davrida arab tarixchi olimi Ibn Arabshoh ham tasdiqlaydi. Bu ma‘lumotlardan esa Amir Temur o‘z siyosatida o‘z davlatining tinchligi yo‘lida qanchalik qayg‘urganini va xavfsizlik yo‘lida umri davomida tinimsiz mehnat qilganligini bilsa bo‘ladi. Ibn Arabshoh Amir Temurning xavfsizlik yo‘lida qilgan ishlari haqida qimmatli ma‘lumotlarni keltirgan: «Temur tengi yo‘q fe‘l-atvorli, chuqur mulohazali kishi

bo‘lib, uning tafakkur dengizining qa‘ri yo‘q va (uning) tadbiri tog‘iga na tekisligu, na g‘adir-budir orqali yo‘l topilardi. U yerlarining barcha tomonlarida o‘z ayg‘oqchilarini tarqatib, qolgan mulklarida esa josuslar qo‘ygan edi». Ular (josuslar) jumlasidan, uning amaldorlaridan biri amir Otlamish bo‘lsa, yana biri faqir faqih Mas‘ud al-Kuxjoniy – u Temur devoni as‘hoblarining ko‘zi edi. Josuslarning bunisi Qohirada, Muiziyada bo‘lsa, unisi Damashqdagi sufiylardan biri edi. Ulardan biri chakanafurush bo‘lsa, ikkinchisi yirik savdogar, hunarmand, munajjim, qalandarlaru darveshlar, dengizchi mallohlaru quruqlikdagi sayyohlar, meshkoblar, etikdo‘zlar edilar. Josuslar chor-atrofdan bo‘layotgan hodisalar va ularning xabarlarini Amir Temurga yetkazib, o‘zlari afzal ko‘rgan ishlarini unga bayon etardilar. Ular vaznlari, narxu navolari to‘g‘risida unga zikr qilib, manzilu shaharlarni tavsiflardilar. Ularning tekis va notekis joylari suratini keltirib, uylari va diyorlari o‘rinlarini chizib ko‘rsatardilar, shular orasida u joylarning yaqin yoki uzoq, tor yoki kengligini, ularning qaysi tevarak-atrofdan, g‘arb yoki sharqda (ekanligini), shaharlar va qishloqlar, manzil va panohjoylar nomlarini, har bir joyning boshliqlari, amirlari, ulug‘lari, fozillari, shariflari, boylariyu faqirlarini, ularning har birining ismi va laqabini, shuhrati va nasabini, hunari va ega bo‘lgan vositalarini to‘la-to‘kis bayon qilardilar. Natijada, Amir Temur o‘z fikri bilan shu narsalarni yaqqol ko‘rib, tafakkuri vositasida o‘z yerlarida turib xorij joylar ustidan ham tasarruf yuritardi. Mabodo u biror shaharda qo‘nib, shu shahar a‘yonlaridan biri bilan suhbatlashsa, u darhol falonu fulon to‘g‘risida, falon kishi bilan falon vaqti sodir bo‘lgan hodisaning qay tarzda bo‘lganini va o‘sha voqeaning nimaga borib taqalganligini, falon bilan fulon o‘rtasida nizo tushganda, ular qanday ish tutganligini surishtira boshlardi. Ko‘pincha Amir Temur o‘z suhbatdoshiga chalkash masalalarni tashlar, ularga oralarida bo‘lib o‘tgan munozaralaru mukotabalar tafsilotini o‘z asliday hikoya qilardi. Ular go‘yo Amir Temur o‘sha bo‘lib o‘tgan voqealardan oldindan voqif yoki bo‘lmasa, bu xabarlarining hammasini o‘z olimlari orqali biladi, deb tasavvur qilardilar [2, B.71–72, B.76–79].

Amir Temur o‘z saltanati hududlarida xavfsizlik choralari o‘zi tayinlagan ishonchli odamlari bilan amalga oshirish bilan bir qatorda bu bilan chegaralanmasdan, balki atrofda hali unga xavf solayotgan kuchlar mavjud ekan boshqa choralarni ham ko‘rgan. Ya‘ni, davlat chegaralarini o‘zi harbiy safarlarda bo‘lgan chog‘larida tashqaridan to‘satdan raqiblari tomonidan uyushtirilgan hujumlardan mudofaa qilish maqsadida mudofaa inshootlari – qal‘alar, nazorat minoralari kabilarni barpo ettirgan.

Amir Temur davrida harbiy razvedka faoliyati nihoyatda yuksak darajada yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur xizmat vakillari chakanafurush, yirik savdogar, polvon, darboz, hunarmand, munajjim, qalandar, darvesh, dengizchi, sayyoh, meshkobchi, etikdo‘z, tolib niqobi ostida turli mamlakatlarda bo‘lgan, u yerlardagi shaharlar, qishloqlar, yo‘llar, tog‘u toshlar, suvlar har bir joyning aholisi, boshliqlari, ulug‘lari, amirlari,

fozillari, shariflari, boy-u kambag'allari to'g'risida har tomonlama o'rganilgan batafsil ma'lumotlar yig'ib, hatto chizilgan suratlari bilan Samarqandga yuborib turilgan [3].

Temur bu bilan ham cheklanmay harbiy, siyosiy munosabatlarga kirishayotgan mamlakatlar tarixi, urf-odatlariga oid asoslarni sinchkovlik bilan o'rganib kelgan. Demak, Amir Temur harbiy siyosati, eng avvalo, davlatni mustahkamlash, xavfdan saqlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu siyosatni puxta yo'lga qo'yishda Sohibqiron masalaning iqtisodiy, ilmiy, tashkiliy (mamlakatlar, shaharlar, yo'llar, xalqlar dushman lashkarlari, tabiiy-iqlim sharoitlarini o'rganish va b.) tomonlariga katta e'tibor berishi san'at borasida yuksaklikka olib chiqqan. Amir Temurning harbiy razvedka sohasida olib borgan taktikalaridan yana bir, —Mayli, har kimsa xatoning eng qo'yisigacha yiqilsa ham yoki savobning cho'qqisiga ko'tarilsa ham – farqi yo'q, hech biri tortinmasdan gapiraversin. Chunki agar xato qilsa, bu nuqson emas, agar maqsadi muvofiq bo'lsa, uni ikki hissa mukofotlar edi[4].

Shu bilan birga, Amir Temur mashvarat o'tkazayotgan vaqtlarida u o'zining sinalgan xabargir (xabarchi), darakchi, ayg'oqchi, josus, hufiya deb atalgan odamlarining axborotlarini diqqat ila eshitar, zaruriyat tug'ilgan vaqtda razvedka bilan shug'ullanuvchi mulozimlarga ichki kiyim ichidan sovut kiyishni buyurardi. Bundan ko'rinib turibdi, harbiy razvedka olib borish, o'z jonini fido qilish bilan barobar ekanligini ko'rish mumkin. Shu sababdan, harbiy razvedka faoliyati bilan shug'ullangan kishilar, jiddiy jahd bilan, vijdonan bu masalada maqsadi va mehnatini ko'rsatib, o'z ijtihodi bergan natijasini namoyish qilgan. Ular o'ylagan fikri Amir Temurga muvofiq deb tasavvur qilgan. Temur tomonidan hamma fikrlar o'rganilib, bir to'xtanga kelingan.

Amir Temur saltanatda davlat xavfsizligi sohasida olib borilgan ishlar tizimli bo'lganligi, ma'lumotlarni ishonchli tarzda yetkazilganligi va bunga nisbatan kerakli qarorlar o'z vaqtida qabul qilinishi Amir Temur davlatida xavfsizlik ta'minlanishini kafolatlagan. Marsel Brionning "Menkim, Sohibqiron – Jahongir Temur" nomli asarida ta'kidlaganidek, "biron bir karvon bugun Anqaradan chiqib Samarqandga borguncha biror-bir kishi karvonga ham, undagi yuklarga ham ziyon yetkazishga jur'at emaydi. Yoki bir o'smir bolaning boshiga tilla to'la barkashni qo'yib, mamlakatim bo'ylab safarga jo'nat – shimoldan-janubgagacha, sharqdan-g'arbga borsin: bola ulg'ayib, balog'at yoshiga yetar, ammo barkashdagi tilla tangadan hatto bittasi ham yo'qolmasligiga kafilman. Hatto norasida go'dakning narsasiga birov daxl qila olmaydi", - degan so'zlari bobomiz Sohibqiron Amir Temur hukmronlik qilgan saltanatda harbiy xavfsizlik mexanizmi tizimli ravishda tashkil etilganligidan dalolatdir.

Amir Temur o'z saltanati hududlarida xavfsizlik choralari o'zi tayinlagan ishonchli odamlari bilan amalga oshirish bilan bir qatorda bu bilan tinchimadi, balki atrofda hali unga xavf solayotgan kuchlar mavjud ekan boshqa choralarni ham ko'rgan.

Ya'ni, davlat chegaralarini o'zi harbiy safarlarda bo'lgan chog'larida tashqaridan to'satdan raqiblari tomonidan uyushtirilgan hujumlardan mudofaa qilish maqsadida mudofaa inshootlari – qal'alar, nazorat minoralari kabilarni barpo ettirgan. Ana shunday qal'a shaharlardan arxeologlar tomonidan qisman qazib o'rganilgan Toshkent viloyatidagi Shohruxiya yodgorligini [5], uzoq Eron mamlakatidagi Boylaqon kabi shaharlarning qayta tiklanishi fikrimizga dalildir. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, garchi Amir Temur o'sha davr taqozosiga ko'ra ko'p mamlakatlarga yurish qilishdan avval o'sha joy haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lgan, shuningdek o'z davlati hududida, tasarrufiga kiritgan yerlarda xavfsizlik maqsadida strategik ahamiyatga ega bo'lgan mudofaa inshootlarini qurgan va ta'mirlagan. Bu o'rinda Amir Temurning "Bir yerga kirishdan avval undan chiqish yo'llarini o'ylab qo'y" – degan o'gitlari juda o'rindir [6].

Xulosa qilib aytganda, ma'lumotga ega kishi dunyoni egallaydi, deb bejizga aytilmagan. Amir Temur ham o'z saltanatida xavfsizlikni ta'minlash yo'lida razvedka orqali juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lgan. Shu sababli, u yetti iqlim hukmdori bo'ldi. Jahonda misli ko'rilmagan saltanatni barpo etdi va uning shuhrati esa dunyoga taraldi.

Kelgusidagi Vatan himoyachilariga qarata Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, g'ururimiz! deb aytsak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz. Bugun biz, hozirgi zamoni xavf-xatarlarini, milliy xavfsizligimizga tahdidlarni e'tiborga olgan holda buyuk sohibqiron Amir Temurning munosib avlodlari ekanligimizni, o'zimiz ustimizda ishlab chuqur bilim egallab, yuksak jangovar shayligimiz va haqiqiy vatanparvarligimiz bilan ifodalashimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A'zamov, A., Temur tuzuklari / A. A'zamov, L. Igamova. – T.: O'zbekiston, 2018. – 181 b.
2. Ibn Arabshoh, Temur tarixida taqdir ajoyibotlari / Ibn Arabshoh. – T.: Sharq, 1992. – 296 b.
3. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001. – 190 b.
4. Sodiqov, H.T., Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati / H.T. Sodiqov. – T.: Fan, 2018. – 16 b.
5. Alimov, O'. Shohruxiyada olib borilgan yangi tadqiqotlar / O'. Alimov – T.: Sharq, 2003. – 183 b.
6. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Nizomiddin Shomiy – T.: O'zbekiston, 1996. – 372 b.